XALQ DEPUTATLARI HAZORASP TUMANI KENGASHINING
Q A R O R I

2025-yil 30-dekabr VII-26-166-12-174-K/25 Hazorasp tumani

Hazorasp tumanining 2026-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2025-yil 25-dekabrdagi O‘RQ-1105-son Qonuniga va xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-16-151-12-0-K/25-sonli qaroriga muvofiq hamda Xorazm viloyati hokimligining 2025-yil 29-dekabrdagi 04-7-09/14137-sonli xatini inobatga olib, xalq deputatlari tuman Kengashi

Qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari viloyat Kengashining 2025-yil 29-dekabrdagi VII-16-151-12-0-K/25-son qarori ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Hazorasp tumani mahalliy budjetining 2026-yilgi daromadlari 120 mlrd 183 mln 958 ming so‘m va xarajatlari esa 120 mlrd 183 mln 958 ming so‘mga ma’lumot uchun qabul qilinganligi hamda Hazorasp tumani mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisob varag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori 941 mln so‘m etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2026-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman mahalliy budjetidan 2026-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Tuman mahalliy budjeti zahira jamg‘armasi hajmi 2026-yil uchun 1 mlrd 697 mln 136 ming so‘m miqdorida belgilansin.

Bunda zahira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib

bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

5. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari-tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i J.Ro‘zimov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i birinchi o‘rinbosari Sh.Xo‘janiyozov tuman soliq inspeksiyasi J.Allayorov bilan birgalikda 2026-yil mahalliy budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

6. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar har chorak yakuni bilan budjet mablag‘larining samarali va maqsadli sarflanganligi, xarajatlarning amaliy natijalari yuzasidan xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot berib borsinlar.

Bunda, hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar:

-budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi;

-o‘zlarining va tasarrufidagi tashkilotlarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallari hamda daromadlar va xarajatlar smetalarining to‘g‘ri tuzilishi;

-budjetdan ajratilgan mablag‘larning maqsadli sarflanishi va maqsadli indikatorlarning to‘liq bajarilishi;

-tasarrufidagi tizim tashkilotlariga budjetdan ajratiladigan mablag‘larning to‘g‘ri taqsimlanishi;

-o‘z tasarrufidagi tizimda budjet intizomiga amal qilinishi ustidan nazorat qilinishini;

-budjet jarayonining ochiqligini ta’minlash maqsadida rasmiy veb-saytlarda ma’lumotlarni joylashtirib borilishini ta’minlasinlar.

7. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

8. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari-tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i J.Ro‘zimov hamda xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohotlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi Q.Nazarovlar zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi **ABDULLAYEV MAKSUDBEK XOJIYEVICH**

Xalq deputatlari Hazorasp tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-26-166-12-174-K/25 -son
qaroriga
1-ilova

2026-yil uchun Hazorasp tuman mahalliy budjeti daromadlarining prognoz ko‘rsatkichlari miqdori

ming so‘mda

№	Daromad turlari	Jami
	Mahalliy budjet daromadlari jami	**120 183 958**
1	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	2 004 364
2	Foyda solig‘i	4 838 120
3	Aylanmadan olinadigan soliq	13 335 000
4	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	21 457 500
5	Jismoniy shaxslarning mol-mulkini ijaraga berishdan olingan daromadlari bo‘yicha to‘lanadigan daromad solig‘i	899 000
6	Aksiz solig‘i jami	5 657 100
	shundan:	
	benzin, dizel yoqilg‘isi va gazni oxirgi iste’molchiga realizatsiya qilishda to‘lanadigan aksiz solig‘i	5 657 100
7	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	5 974 000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	17 064 974
9	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	11 365 000
10	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	25 530 000
11	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	33 000
12	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	2 851 000
	shundan:	
	qishloq xo‘jaligi korxonalarining suv solig‘i	4 185 000
	qishloq xo‘jaligi korxonalarining suv solig‘ining 40 foizini qaytarish (PQ-5)	1 674 000

13	Davlat bojlari	4 476 150
14	Yig‘imlar	1 523 700
15	Jarimalar	2 614 050
16	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	561 000

Xalq deputatlari Hazorasp tumani
Kengashining
2025-yil 30-dekabrdagi
VII-26-166-12-174-K/25 -son
qaroriga
2-ilova

2026-yil uchun Hazorasp tuman mahalliy budjetidan hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

T/R	Hududiy budjet mablag‘lari taqsimlovchilar nomi	Cheklangan miqdor
	Harajatlar miqdori, jami	**120 183 958**
1	Maktabgacha va Maktab ta’limi bo‘limi	37 199 298
	shundan:	
	Mening maktabim	3 275 400
2	Madaniyat bo‘limi	4 892 407
3	Yoshlar ishlari agentligining hududiy bo‘limi	5 600 875
4	Sport bo‘limi	5 622 189
5	Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bo‘limi	1 342 250
6	Qishloq xo‘jaligi bo‘limi	3 677 585
7	Suv yetkazib berish xizmati DM	1 503 652
8	Iqtisodiyot va moliya bo‘limini saqlash xarajatlari	2 436 749
9	Ijtimoiy ximoya milliy agentligining hududiy bo‘limi Ijtimoiy ko‘nikma markazlari xarajatlari	108 454
10	Hokimiyat	39 901 411
	shundan:	
	Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi	21 640 517
	Mahalla budjeti jamg‘armasi mablag‘lari	2 825 946
	Zahira jamg‘armasi	1 697 136
11	Hokimiyat (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi)	854 509
	shundan:	

	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari	55 174
	Axborot-kutubxona markazlari	799 335
12	Obodonlashtirish boshqarmasi	17 044 579